



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI


*qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar*

*2024-yil yanvar-iyun davri uchun
ma'lumotlar dastlabki, o'tgan davrlar
uchun ma'lumotlar yakuniy hisoblanadi*


2024 - yil yanvar-iyun

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi

yanvar-iyun, o'sish darajasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan, ming so'm



Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori dinamikasi, so'mda




Ma'lumot uchun: Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga 2023 - yil 1 – dekabrda o'zgartirish kiritildi hamda **1050,0 ming so'mga** yetkazildi.

2024 - yil yanvar-iyun oylari uchun o'rtacha oylik ish haqi ko'rsatkichini shakllantirishda qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlari **hisobga olinmagan**, chunki fermer xo'jaliklari hamda kichik tadbirkorlik subyektlari **yilda bir marta** hisobot taqdim etishi belgilangan.

Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o'rinlarda – o'rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo'shimcha to'lovlar, mukofot pullari, rag'batlantiruvchi to'lovlar, kompensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to'lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.

O'rtacha oylik ish haqining tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi, yanvar-iyun, ming so'm



JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2023 - 2024 yillarda o'rtacha oylik ish haqining oylar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida o'rtacha oylik ish haqi, ming so'm



Sanoat
4579,2
124,4%



Qurilish
4506,2
106,5%



Tashish va saqlash
7332,8
154,9%



Axborot va aloqa
8266,7
114,6%



Savdo
5898,6
210,5%



Ta'lim
3221,8
112,4%



**Bank, sug'urta, lizing, kredit
va vositachilik faoliyati**
10992,1
113,7%




**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy
xizmatlar ko'rsatish**
3091,2
108,1%


2024 - yil yanvar - iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland ko'rsatkichi – bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati sohasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish darajasi **13,7%** ni tashkil etdi.

Shuningdek, savdo sohasi **2,1 marta**, tashish va saqlash sohasi **54,9%**, sanoat sohasi **24,4 %**, axborot va aloqa sohasi **14,6%**, ta'lim sohasi **12,4%**, Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi **8,1 %**, qurilish sohasida **6,5 %**, ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

SANOAT SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



1 698,6

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



4 410,0

Ishlab chiqarish
sanoati



2 364,4

Suv bilan ta‘minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish
va utilitatsiya qilish




6 549,0

Elektr, gaz, bug‘
bilan ta‘minlash va
havoni konditsiyalash



Sanoatning asosiy tarmoqlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko‘rsatkichi elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash (**6 549,0 ming so‘m**), ishlab chiqarish sanoati (**4 410,0 ming so‘m**), Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiyatizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish tarmog‘i (**2 364,4 ming so‘m**) da kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Sanoat iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi G'allaorol tumani (**8121,5 ming so'm**), Zafarobod tumani (**7946,4 ming so'm**), Jizzax shahrida (**4213,4 ming so'm**), Zarbdor tumani (**4171,5 ming so'm**) kuzatildi.

Hududlar kesimida



QURILISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Paxtakor (**7154,7 ming so'm**) Zomin (**5070,4 ming so'm**) tumanlarida va Jizzax shahri (**5045,7 ming so'm**), qayd etildi.


Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari Qurilish faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi. Baxmal (**3435,9 ming so'm**), G'allaorol (**3486,8 ming so'm**) Forish (**3506,4 ming so'm**) va Zafarobod (**3520,2 ming so'm**) hamda tumanlarida qayd etildi.




Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*




SAVDO SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm




Savdo faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahri (**6455,1 ming so'm**) hamda Baxmal tumani (**1653,2 ming so'm**), tumanida qayd etildi.

TASHISH VA SAQLASH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




HUDUDLAR KESIMIDA




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi G'allaorol tumani (11024,5 ming so'm) Jizzax shahrida (2946,6 ming so'm) da kuzatildi..

O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



AXBOROT VA ALOQA SOHASIDA O‘RTACHA OYLIK ISH HAQI



■ 2023 -yil ming so'mda

■ 2024 -yil ming so'mda


Hududlar kesimida



■ ming so'm



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*




 *ming so'm*




Axborot va aloqa faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahri (8686,4 ming so'm), G'allaorol tumani (3873,0 ming so'm), Forish (3193,4 ming so'm), Zarbdor (3000,0 ming so'm) va Paxtakor (2746,7 ming so'm) tumanlari da kuzatildi.


BANK, SUG'URTA, LIZING, KREDIT VA VOSITACHILIK SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



Hududlar kesimida




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, *ming so'm*




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining ko'rsatkichi Jizzax shahri (**11002,4 ming so'm**), hamda Yangiobod tumani (**10415,9 ming so'm**) tumanlida kuzatildi.

TA'LIM SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI




O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, ming so'm



Hududlar kesimida

Ta'lim sohasi bo'yicha bir qator tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichi Jizzax shahri (**4426,0 ming so'm**), Zarbdor tumani (**3644,7 ming so'm**) Baxmal tumani (**3347,4 ming so'm**) da kuzatildi.


Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi. Yangiobod tumanida (**2507,5 ming so'm**), Zafarobod tumanida (**2566,6 ming so'm**), G'allaorol tumanida (**2582,5 ming so'm**), Forish tumanida (**2776,5 ming so'm**), Paxtakor tumanida (**2834,4 ming so'm**) hamda qayd etildi.



■ ming so'm



SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI Hududlar kesimida




● ming so'm




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bir qator tumanlarda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining viloyat o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori ko'rsatkichi Arnasoy (3932,2 ming so'm), Zomin (3428,4 ming so'm), Paxtakor (3311,0 ming so'm) tumanlarida va Jizzax shahri (3241,3 ming so'm) kuzatildi.

Shu bilan bir qatorda, viloyatning ba'zi tumanlari ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichi viloyat darajasidan past bo'ldi. Forish (2632,1 ming so'm), Zarbdor (2654,8 ming so'm), Do'stlik (2743,8 ming so'm) hamda G'allaorol (2776,0 ming so'm) tumanlarida qayd etildi.


SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASIDA O'RTACHA OYLIK ISH HAQI



O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi **dinamikasi**



DEMOGRAFIYA, MEHNAT VA GENDER STATISTIKASI BO'LI MI



Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.



Tel.: 72 221-51-19